

OTALAR MAJLISI O‘TKAZILDI



OTALAR MAJLISI O‘TKAZILDI

Kecha, Termiz shahridagi 1,2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida otalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati, mas’uliyati va farzandlar bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlash yuzasidan “Otalarni majlisi” o‘tkazildi.

Ushbu yig‘ilishda "Nuroniylar" jamg‘armasi shahar bo‘limi raisi T.Berdiyev, deputatlar, faol nuroniylar, otalar va o‘qituvchilar ishtirok etishdi.

Yig‘ilishda ma’ruzachilar va o‘qituvchilar tomonidan farzand ta’lim-tarbiyasidagi o‘rinda, ayniqsa, otalar ko‘proq mas’uliyatli bo‘lishi to‘g‘risida o‘zaro fikrlar almashildi.

Image not found or type unknown

Oz navbatida, kelgusida o'tkaziladigan "Otalar majlisi" an'ana ga aylantirilishi hamda faizalilar ta'lim-tarbiyasiga bog'liq muammolarni otalar bilan birgalikda muhokama qilishga kelishib olindi.






Image not found or type unknown

